O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VAZIRINING
BUYRUG‘I

SHNQ 2.09.03-23 “OMBORXONALAR. LOYIHALASH ME’YORLARI” SHAHARSOZLIK NORMALARI VA QOIDALARINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA

[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 7-dekabrda hisobga olindi, hisob raqami 221]

O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-oktabrdagi 577-son “Qurilish sohasiga oid talablarni soddalashtirish hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq buyuraman:

1. SHNQ 2.09.03-23 “Omborxonalar. Loyihalash me’yorlari” shaharsozlik normalari va qoidalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi raisining 1998-yil 4-martdagi 21-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan QMQ 2.09.06-98 “Yog‘och materiallari omborlari. Yong‘indan saqlash loyihalash me’yorlari” qurilish me’yorlari va qoidalari;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi raisining 2009-yil 18-sentabrdagi 97-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan SHNQ 2.09.12-09 “Ombor binolari” shaharsozlik normalari va qoidalari.

3. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi bilan kelishilgan.

4. Ushbu buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Vazir B. ZAKIROV

Toshkent sh.,
2023-yil 10-noyabr,
368-son

Kelishildi:

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vaziri A. KULDASHEV

2023-yil 20-oktabr

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri A. ABDUXAKIMOV

2023-yil 21-oktabr

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi raisi B. YUSUPALIYEV

2023-yil 27-oktabr

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va
uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining
2023-yil 10-noyabrdagi 368-son
buyrug‘iga
ILOVA

SHNQ 2.09.03-23 “Omborxonalar. Loyihalash me’yorlari” shaharsozlik normalari va qoidalari

Mazkur shaharsozlik normalari va qoidalari (bundan buyon matnda SHNQ deb yuritiladi) namlik darajasi nazorat qilinadigan, ayvon turidagi, yog‘och va yog‘och materiallarni (yog‘och-taxta, dumaloq yog‘ochlar, mayda yog‘och, qatronlangan yog‘och, o‘tin, payrahalar, qipiqlar va chiqindi yog‘ochlar) saqlash omborlarini, shuningdek omborlarning umumiy maqsadlarda foydalaniladigan qo‘shimcha xonalari va binolarini loyihalash hamda ularni rekonstruksiya qilishga oid bo‘lgan talablarni belgilaydi.

Ushbu SHNQda belgilangan talablar yengil alangalanuvchi va yonuvchi suyuqliklar, o‘q-dorilar, xavfli chiqindilar, quruq mineral o‘g‘itlar, kimyoviy vositalar, radioaktiv, kuchli ta’sir qiluvchi zaharli moddalar, yonuvchan gazlar, 70 kPa (0.7 kgf/cm²) bosim ostida bo‘lgan yonmaydigan gazlar, neft va neft mahsulotlari, kauchuk, selluloid, yonuvchan plastmassa, kinoplyonka, sement, paxta, un, kombikorm, jun, teri va teri mahsulotlari, don, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari saqlanadigan hamda sovutgich omborlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

1-bob. Shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga havolalar

1. Mazkur SHNQda quyidagi shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari,normalari va gigiyena normativlari, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga havolalar qo‘llanilgan:

SHNQ 2.07.01-23 “Aholi punktlarining hududlarini rivojlantirish va qurishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish”;

SHNQ 2.07.04-19 “Qishloq xo‘jaligi korxonalari hududlarini me’moriy rejalashtirish va tashkil qilish”;

SHNQ 2.08.02-23 “Jamoat binolari va inshootlari”;

SHNQ 2.09.02-23 “Korxonalarning ishlab chiqarish hamda ma’muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari”;

SHNQ 2.07.02-24 “Qurilish obyektlarini nogironligi bo‘lgan va hayot faoliyati cheklangan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish”;

SHNQ 2.01.02-04 “Binolar va inshootlarning yong‘in xavfsizligi”;

SHNQ 2.01.19-22 “Portlab-yonish va yong‘in xavfi bo‘lgan xonalar, binolar va tashqi qurilmalar toifalarini aniqlash”;

SHNQ 2.01.01-22 “Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy-geologik ma’lumotlar”;

QMQ 2.01.03-19 “Seysmik hududlarda qurilish”;

SHNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun’iy yoritish”;

SHNQ 2.04.09-21 “Bino va inshootlarning yong‘in avtomatikasi tizimi. Loyihalash talablari”;

SHNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash”;

SHNQ 2.03.13-24 “Pollar”;

SHNQ 2.03.10-24 “Tomlar va tom qoplamalari”;

SHNQ 2.05.01-23 “Temir yo‘llar. Loyihalash talablari”;

SHNQ 2.09.21-2022 “Yong‘in-qutqaruv depolari va postlari”;

SHNQ 2.04.16-23 “Quyosh suv isitish qurilmalari”;

SHNQ 2.04.15-23 “Fotoelektrik stansiyalar (tizimlar)”;

QMQ 2.04.02-19 “Suv ta’minoti. Tashqi tarmoqlar va inshootlar”;

SHNQ 2.05.06-22 “Magistral quvurlar”;

QR 03.01-23 “Yuk ko‘taruvchi va to‘suvchi konstruksiyalar”;

GOST 33757-2016 “Yassi yog‘och tagliklar (poddonlar). Texnik shartlar” (rasmiy manba: Poddoni ploskiye derevyannie. Texnicheskiye usloviya);

GOST 9029-95 “Kombinatsiyalashgan yong‘in o‘chirish lafet dastaklari. Texnik shartlar” (rasmiy manba: Stvoli pojarnie lafetnie kombinirovannie. Texnicheskiye usloviya);

SanQvaN 0027-22 “Umumiy ovqatlanish korxonalariga qo‘yiladigan sanitariya-gigiyena talablari”;

SanQvaN 0103-25 “Sanitariya-muhofaza zonasiga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari.

2-bob. Atamalar va ta’riflar

2. Ushbu SHNQda quyidagi atamalar va ularning ta’riflari qo‘llanilgan:

mobil bino — konstruksiyasi bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirishga imkon beruvchi hamda zavoddan komplekt holda yetkazib beriladigan vaqtinchalik bino yoki inshoot;

platforma — ikki tomondan kelish yo‘llari tashkil etilgan (bir tomondan temir yo‘lga tutashishi mumkin) yuklash va yukni tushirish uchun mo‘ljallangan inshoot;

dok — binoning yuk mashinalari yoki temir yo‘l vagonlari uchun yuklash va yukni tushirishga mo‘ljallangan qismi;

rampa — bir tomondan ombor binosiga, ikkinchi tomondan avtomobil kelish yo‘liga yoki temir yo‘liga tutashgan hamda yuklash va yukni tushirish uchun mo‘ljallangan inshoot;

texnik qavat — binoning muhandislik uskunalarini joylashtirish uchun mo‘ljallangan qavat;

stellaj — omborda yuklarni saqlash uchun qo‘llaniladigan, metall ustunlar, to‘sinlar va ko‘ndalang balkalar, yoki balkalarga qotirilgan ko‘p quvvatli to‘shamalar (tokchalar)dan iborat bo‘lgan maxsus qurilma;

shtabel — yog‘och materiallarining tekis taxlangan qatori.

3-bob. Umumiy qoidalar

3. Ombor binolarini joylashtirish SanQvaN 0103-25 hamda SHNQ 2.07.01-23 da belgilangan talablarga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

4. Qishloq ho‘jalik korxonasi hududidagi ombor binolarini loyihalash SHNQ 2.07.04-19da belgilangan talablarga asosan amalga oshirilishi kerak.

5. Seysmik hududlarda joylashgan ombor binolarini loyihalash QMQ 2.01.03-19da belgilangan talablarga muvofiq amalga oshirilishi zarur.

6. Ishlab chiqarish binolaridagi omborxonalarni SHNQ 2.09.02-23da belgilangan talablarga asosan loyihalash lozim.

7. Ishlab chiqarish binolarida ish jarayonida sarflanadigan materiallarning (xomashyo, yarimfabrikat) miqdori to‘g‘risidagi ma’lumot loyiha topshirig‘ida keltirilmagan bo‘lsa, ushbu materiallarning ishlab chiqarish binosida saqlanadigan miqdori bir ishchi smena davomida sarflanadigan miqdordan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

8. Ombor binolarining ma’muriy va maishiy xonalari SHNQ 2.09.02-23da belgilangan talablarga muvofiq loyihalanishi kerak.

9. Jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnatidan foydalanish mumkin bo‘lgan ombor binolari va ularning xonalarining bloklarini loyihalashda SHNQ 2.07.02-24da belgilangan talablarni hisobga olish lozim.

10. Binolarda omborxonalarni joylashtirish, ularni bir-biridan yong‘inga qarshi to‘siqlar (devorlar, pardadevorlar) bilan ajratish, evakuatsiya yo‘llarini o‘rnatish, zinapoya kataklarini, tambur-shlyuzlarni, tutunni chiqarish moslamalarini, binoning tashqarisiga va tomiga chiqish joylarini o‘rnatish SHNQ 2.01.02-04, SHNQ 2.01.19-22 va SHNQ 2.04.05-22da belgilangan talablarga asosan amalga oshirilishi kerak.

11. Ombor binolarining tomlari va tom qoplamalari SHNQ 2.03.10-24da belgilangan talablarga muvofiq loyihalanishi lozim.

12. Ombor binosi uchun qo‘yiladigan talablar omborning vazifasiga muvofiq belgilanishi lozim.

4-bob. Omborlarning hajmiy-rejaviy va konstruktiv yechimlariga qo‘yiladigan talablar

13. Ombor binolarining hajmiy-rejaviy va konstruktiv yechimlarini tanlash mazkur SHNQ hamda SHNQ 2.07.01-23, SHNQ 2.01.01-22, SHNQ 2.01.19-22, SHNQ 2.01.02-04 talablari va QR 03.01-23 ga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

14. Ombor binosi ichidagi ustunlar orasidagi masofa kamida 6 m va undan kata qilib loyihalanishi lozim, bunda ombor maydonidan maksimal darajada samarali foydalanish uchun ustunlar orasidagi masofa 12 — 15 m oralig‘ida qabul qilinishi mumkin.

15. Ombor binosining umumiy va qurilish hajmini hisoblash SHNQ 2.09.02-23da belgilangan talablarga asosan amalga oshirilishi kerak.

16. Ombor binosidagi saqlash xonalari, ekspeditsiya, yuklarni qabul qilish, saralash va komplektlash xonalari hamda ma’muriy, maishiy va boshqa xonalarni birlashtirish (agar bunday birlashtirish texnologik, sanitariya-gigiyena va yong‘inga qarshi xavfsizlik talablariga zid bo‘lmasa) mumkin.

17. Muhandislik, energetik, sanitariya-texnika jihozlarini asosiy binoga qo‘shib qurilgan yoki qo‘shimcha qurilma ko‘rinishida qurilgan binolarda, antresollarda, stellajlarda yoki ochiq maydonlarda (zarur bo‘lganda ayvonlar, to‘suvchi konstruksiyalar qo‘llaniladi) joylashtirish mumkin.

18. Energetik va sanitariya-texnika uskunalarini ochiq maydonchalarda joylashtirishga ruxsat etiladi, bunda yuklarni saqlash va ekspeditsiyalash maydoni muhandislik uskunalari bilan band qilinmasligi zarur.

19. Odamlar doimiy o‘tib turadigan joylarda va evakuatsiya yo‘llarida pol sathidan konstruksiyalarning tagigacha hamda muhandislik kommunikatsiyalari va uskunalarning bo‘rtib turadigan elementlarigacha bo‘lgan balandlik kamida 2 m bo‘lishi lozim.

20. Texnik jihatdan asoslangan hollarda bir qavatli ombor binolarida stellaj konstruksiyalarini (ustunlar va to‘sinlar) tomyopma ustunlari hamda tashqi devorlarning to‘suvchi konstruksiyalarini mahkamlashda qo‘llash mumkin.

21. Omborxonalarning transport vositalari harakatlanadigan joylarida ustunlar, deraza va eshik o‘rnilarining qirralari mexanik shikastlanishlardan himoyalangan bo‘lishi hamda daraklovchi ranglar va xavfsizlik belgilari bilan jihozlangan bo‘lishi zarur.

22. Oziq-ovqat mahsulotlariga tegib turadigan stellajlar va yuzalar SanQvaN 0027-22dagi qo‘llashga ruxsat etilgan materiallardan tayyorlanishi lozim.

23. Ombor binosining oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun mo‘ljallangan xonalaridagi pol qoplamalarida qatronli mastikalardan foydalanish mumkin emas.

24. Omborlardagi pol asoslari va qoplamalari uchun qo‘llaniladigan konstruksiyalar va materiallar ombordagi ishlarni bajarish texnologiyasi, shuningdek SHNQ 2.03.13-24da belgilangan talablarga muvofiq tanlanishi, bunda omborda saqlanadigan yuklarning og‘irligi, mexanik ta’sirlar, pol yuzasidan yuradigan transport vositasining og‘irligi hisobga olinishi lozim.

25. Omborning darvozalari, yorug‘lik o‘tkazuvchi shiftlari, tashqi yong‘in zinalari, tomga chiqish joylari, parapetlar, deraza va yorug‘lik shiftlarini tozalash hamda ta’mirlash uchun moslamalarni o‘rnatishda SHNQ 2.09.02-23 talablariga rioya etilishi kerak.

26. Omborda ishlatiladigan transport vositalarining harakatlanishi uchun panduslarning kengligi yuklangan transport vositasining kengligidan kamida 0.6 m ga enliroq bo‘lishi lozim.

27. Xonalar ichidagi panduslarning nishabligi 16 foizdan, bino tashqarisidagi panduslarning nishabligi 10 foizdan yuqori bo‘lmasligi kerak.

28. Yuklash va yukni tushirish uchun rampalar va platformalar ombordagi ishlarni bajarish texnologiyasi va SHNQ 2.09.02-23 talablariga muvofiq loyihalanishi, bunda rampalar va platformalarda kamida ikkita zina yoki pandus bo‘lishi zarur.

29. Avtoyuklagichlardan foydalanilganda, rampa va platformaning eni 4.5 m dan kichik bo‘lmasligi, ularning uzunligi transport vositasining o‘lchamiga to‘g‘ri keladigan yuklash zonasi uzunligi bo‘yicha belgilanishi lozim.

30. Yuklash va yukni tushirish rampalari va platformalarining ko‘ndalang nishabligi 1 foizga teng bo‘lishi kerak.

31. Avtomobil transporti uchun yuklash va yukni tushirish rampasining avtomobil kelish tomonidagi sathi yo‘lning qatnov qismi yoki yuklash va yukni tushirish maydonchasi sathidan 1.2 m balandlikda bo‘lishi lozim.

32. Rampa va platformalar ustidagi ayvonlarning konstruksiyalari ombordagi ishlarni bajarish texnologiyasi va SHNQ 2.09.02-23 talablariga muvofiq bo‘lishi, bunda ular yonmaydigan materiallardan tayyorlanishi zarur.

33. Rampa yoki platforma cheti bo‘ylab ayvonlarning tayanch ustunlari orasidagi masofalar quyidagicha bo‘lishi kerak:

avtomobil rampalari va platformalari uchun kamida 6 m;

temir yo‘l rampa va platformalari uchun kamida 12 m.

34. Avtomobil rampalari va platformalari ustidagi ayvon rampa chetidan avtomobil o‘tish yo‘liga kamida 1.5 m gacha, temir yo‘l yuklash va yuk tushirish rampalari ustidagi ayvon temir yo‘l o‘qiga kamida 0.5 m gacha chiqib turishi zarur.

35. Ombor tarhini va yo‘laklarini loyihalashda, yuklarni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirib o‘tish yo‘llarida transport vositasining erkin harakatlanishga xalaqit beradigan to‘siqlar (ustunlar, to‘sinlar, sath farqlari) bo‘lmasligi kerak.

36. Omborning sig‘imidan samarali foydalanish uchun uning binosini loyihalashda yuklarning qadoqlash va tashish o‘lchamlari hisobga olinishi lozim.

37. Xavfli materiallar saqlanadigan omborlarda yuklarni saqlash balandligi 7620 mm dan oshmasligi kerak.

38. Yuklarni taxlash balandligini belgilashda ustma-ust taxlangan yuklarning og‘irligi, polning yuk ko‘tarish qobiliyati hisobga olinishi, bunda sanchqili avtoyuklagich ko‘tara oladigan masofagacha bo‘lgan palet stellajlarining balandligi mazkur SHNQning 1-ilovasiga muvofiq belgilanishi zarur.

39. Benzin, dizel yoki propan yoqilg‘isida ishlaydigan avtoyuklagichlarga yoqilg‘i quyish ombor binosi tashqarisida amalga oshirilishi, bunda benzin yoki dizelda ishlaydigan avtoyuklagichlar uchun yoqilg‘i quyish joyida tasodifan to‘kilgan yoqilg‘ining yoyilib ketishini oldini oluvchi “to‘g‘oncha” bo‘lishi kerak.

40. Paletlarda saqlanadigan yuklarni xavfsiz saqlash uchun palet stellajlari GOST 33757-2016da belgilangan o‘lchamlarga asoslangan holda loyihalanishi, ushbu GOSTga muvofiq bo‘lmagan o‘lchamdagi paletlar saqlanadigan ombor rejasi palet stellajlarining o‘lchamlari va sanchqili avtoyuklagichlarning turiga (ikki qatorli palet stellajlari, konsolli tokchalar, ichidan sanchqili avtoyuklagich o‘tadigan palet stellajlari tizimi, sirpantirib yuklovchi sanchqili avtoyuklagichlar, sanchqisi uzayadigan yuklagichlar va boshqalar) muvofiq bo‘lishi zarur.

41. O‘lchamlari kichik bo‘lgan, yuklash va tashishda texnika talab qilinmaydigan, qo‘lda taxlanadigan yuklar uchun omborda tokchalar va qutilar o‘rnatilishi mumkin.

42. Yordamchi xonalarning o‘lchamlari va maydonlari mazkur SHNQning 2-ilovasida keltirilgan talablar bo‘yicha loyihalanilishi kerak.

43. Yuklarni qabul qilish va chiqarish ofisining tarhiga misol mazkur SHNQning 3-ilovasida keltirilgan.

5-bob. Yuklash va yukni tushirish doklarini loyihalashga qo‘yiladigan talablar

44. Yuklash va yukni tushirish uchun platforma hamda rampalarning loyiha yechimlarini belgilashda SHNQ 2.05.01-23da belgilangan talablarga rioya qilinishi zarur.

45. Omborlarning yuklash va yukni tushirish doklarida transport vositalari manyovrlash joylarining o‘lchamlariga misol mazkur SHNQning 4-ilovasidagi 1-rasmda keltirilgan. Shuningdek, bino burchaklari va dok qismlarining transport vositasi urilishidan himoyalash uchun beton bilan to‘ldirilgan quvurdan yasalgan ustunchalari Ushbu SHNQning 4-ilovasining 2-rasmida keltirilgan o‘lchamlarga muvofiq loyihalanilishi kerak.

46. Dokda xavfsizlik texnikasi talablariga muvofiq bo‘lgan hamda mazkur SHNQning 6-ilovasidagi 2-rasmda ko‘rsatilgan himoya vositalari va yiqilishdan himoyalovchi to‘siqlar bo‘lishi lozim.

47. Yuklash va yukni tushirish dokining yuk mashinasi o‘lchamiga bog‘liq bo‘lgan balandliklari mazkur SHNQning 5-ilovasida keltirilgan o‘lchamlarga muvofiq bo‘lishi kerak.

48. Yuk mashinasini dokga tutashtirish maqsadida tutashtiruvchi qurilmadan foydalanish mumkin, bunda tutashtiruvchi qurilmaning sxemasi ushbu SHNQning 7-ilovasidagi 1-rasmda keltirilgan.

49. Yuk mashinalari uchun yuklash va yukni tushirish dokining ko‘rsatkichlari mazkur SHNQning 7-ilovasidagi 1 — 3-rasmlarda keltirilgan o‘lchamlarga mos ravishda olinishi mumkin.

50. Dokda o‘lchamlari yuk mashina o‘lchamlariga mos bo‘lgan darvozalar hamda nishabligi binodan teskari tarafga qaragan dok maydonchasi bo‘lishi lozim, bunda ularning o‘lchamlariga misol ushbu SHNQning 6-ilovasidagi 4-rasmda keltirilgan.

51. Barcha tashqi tayanch ustunlarida himoya to‘siqlari bo‘lishi zarur.

52. Relsli platformalarning oxirida va omborning yuk mashinalar uchun mo‘ljallangan bitta eshigida transport vositasi kirishi uchun nishabligi 10 foizdan katta bo‘lmagan rampalar bo‘lishi kerak.

53. Omborlarda (isitiladigan, havosi mo‘tadillashtiriladigan va havosi quruq bo‘ladigan) dok va platformani ob-havo ta’siridan himoyalash maqsadida yopish uchun dok chodiri yoki eshik zichlagichi bo‘lishi, shuningdek barcha doklarda yog‘ingarchilikdan to‘sish uchun dokning butun eni bo‘ylab soyabon va yomg‘ir suvlarini chiqarib yuboruvchi drenaj tizimiga ulangan tarnovlar o‘rnatilishi lozim.

Dok soyabonining sxemasi mazkur SHNQning 7-ilovasidagi 2-rasmda keltirilgan.

6-bob. Isitish, shamollatish va konditsiyalash tizimi

54. Ombor binolari va xonalarining isitish, ventilyatsiya va konditsionerlash tizimlari SHNQ 2.09.02-23, SHNQ 2.04.05-22, SHNQ 2.08.02-23da keltirilgan talablarni hisobga olgan holda loyihalanilishi lozim.

55. Ombor binolaridagi jamoat va ma’muriy hamda maishiy maqsadlarda foydalaniladigan xonalardagi harorat va havoning nisbiy namligi SHNQ 2.08.02-23da belgilangan talablar bo‘yicha qabul qilinishi lozim.

56. Omborlarda mahalliy isitish moslamalariga ega bo‘lgan suvli isitish tizimlari bo‘lishi, shuningdek SHNQ 2.04.05-22ga muvofiq boshqa isitish tizimlari qo‘llanilishi mumkin.

57. Omborlarda 1 h ichida kamida bir marta havo almashinuvini ta’minlaydigan tabiiy umumiy shamollatish (ventilyatsiya) bo‘lishi, bunda zararli moddalar ajralib chiqishi yoki o‘tkir va yoqimsiz hidlar chiqishi mumkin bo‘lgan omborxonalarda SHNQ 2.04.05-22ga muvofiq sun’iy ravishda ishga tushiriladigan ventilyatsiya tizimi bo‘lishi lozim.

58. Omborda benzin, dizel yoki propan yoqilg‘isida ishlaydigan yuklagichlardan foydalanish rejalashtirilgan bo‘lsa, omborning shamollatish va/yoki iqlim nazorat tizimini loyihalashda omborda ishlaydigan avtoyuklagichlar soni va ularning ombor ichida ishlash vaqti davomiyligi hisobga olinishi kerak.

59. Tabiiy shamollatish tizimi yuklarni saqlash texnologiyaga muvofiq belgilangan ko‘rsatkichlarni ta’minlay olmasa, omborxonalarda sun’iy shamollatish tizimi loyihalanishi lozim.

60. Omborda elektr tokidan quvvatlanadigan mexanizmlarni quvvatlash uchun maxsus jihozlangan va tabiiy yoki sun’iy shamollatish tizimiga ega bo‘lgan xona loyihalanilishi lozim.

61. Xo‘jalik va maishiy ehtiyojlar uchun qo‘shimcha ravishda SHNQ 2.04.16-23 va SHNQ 2.04.15-23da keltirilgan talablarga muvofiq quyosh issiqligi, suv ta’minoti qurilmalari va fotoelektrik stansiyalar o‘rnatilishi mumkin.

7-bob. Yong‘in xavfsizligi talablari

1-§. Omborlar uchun umumiy talablar

62. Ombor binosi yoki xonasining portlash va yong‘in xavfi bo‘yicha toifasi SHNQ 2.01.19-22da keltirilgan talablarga muvofiq belgilanishi lozim.

63. Binolar orasidagi yong‘in xavfsizligi bo‘yicha ajratish masofalari SHNQ 2.01.02-04da belgilangan talablarga muvofiq bo‘lishi kerak.

64. Yordamchi xonalar xavfli materiallarni saqlash xonalaridan 2 h ga mo‘ljallangan olovbardosh devorlar bilan, yonuvchan va alangalanuvchan materiallar saqlanadigan xonalardan 4 h ga mo‘ljallangan olovbardosh devor bilan ajratilgan bo‘lishi, bunda yordamchi xonalar va xavfli materiallarni saqlash xonalari orasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tish joylari bo‘lmasligi kerak.

65. Portlash xavfi bo‘lgan toifaga kiruvchi ombor binolarining tashqi to‘suvchi konstruksiyalari portlash sodir bo‘lganda oson ajralib tushadigan qilib loyihalanishi lozim.

66. Ombor binolarining olovbardoshlilik darajasi, bino balandligi, qavatlar soni va yong‘in bo‘linmasi chegaralaridagi qavat maydoni mazkur SHNQning 8-ilovasidagi jadvalga muvofiq qabul qilinishi zarur.

67. Tutash qavatlarning orayopmalarida ochiq texnologik tuynuklar mavjud bo‘lsa, ushbu qavatlarning maydonlari mazkur SHNQning 8-ilovasidagi jadvalda ko‘rsatilgan qavat maydonidan katta bo‘lmasligi kerak.

68. Omborning xonalarini avtomatik yong‘in o‘chirish moslamalari bilan jihozlashda mazkur SHNQning 8-ilovasidagi jadvalda ko‘rsatilgan qavat maydonlarini 100 foizga oshirish mumkin (olovbardoshlilik darajasi IV va yong‘in xavfi bo‘yicha barcha sinflarga mansub binolar bundan mustasno).

69. Binoning birinchi qavat orayopmasini olovbardoshlik darajasi REI 150 1-turda bo‘lsa, ko‘p qavatli bino birinchi qavatining maydonini bir qavatli bino uchun qo‘llaniladigan talablar bo‘yicha qabul qilish mumkin.

70. B va V toifaga mansub bo‘lgan ko‘p qavatli ombor binolari 60 m dan katta bo‘lmagan kenglikda loyihalanilishi kerak.

71. Yuklar baland stellajlarda saqlanadigan V toifaga mansub bo‘lgan ombor binolarining tomyopmasida tutunni chiqarish uchun havo tortish shaxtalari yoki fonarlar o‘rnatilishi va SO sinfli va olovbardoshlilik darajasi I — III bo‘lgan bir qavatli bino sifatida loyihalanilishi lozim.

72. Stellajlarda yonmaydigan materiallardan qurilgan va balandlik bo‘ylab 4 m dan katta bo‘lmagan ekranlar bo‘lishi, bunda ekranlar stellajning to‘liq gorizontal kesimini va juftlangan stellajlar orasidagi tirqishlarni yopishi hamda yuklash va yukni tushirish ishlari uchun to‘siq hosil qilmasligi kerak.

73. Idishlar (tara) va tagliklarning (poddon) ekranlari va tublarida diametri 10 mm bo‘lgan va bir tekis joylashgan teshiklar bo‘lishi lozim.

74. Stellajlarda har 40 m da balandligi kamida 2 m va kengligi kamida 1.5 m bo‘lgan ko‘ndalang o‘tish yo‘llari bo‘lishi, bunda stellajlar oldidagi o‘tish yo‘llari stellaj konstruksiyalaridan yong‘inga qarshi pardadevorlar bilan ajratilishi hamda stellajlarning ko‘ndalang o‘tish yo‘llari o‘rnatilgan joylardagi tashqi devorlarda eshik o‘rinlari bo‘lishi kerak.

75. Stellajlar orasidagi o‘tish yo‘llarining tepasida tutunni chiqarib yuborish uchun havo tortish shaxtalari (lyuklar) o‘rnatilishi lozim.

76. Stellajlarning quvursimon shakldagi yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarini mustahkamligi yetarli bo‘lsa, ular orqali olovni o‘chiruvchi moddalarni yuborish uchun foydalanish mumkin.

V1-V3 toifasidagi ishlab chiqarish binolarining omborxonalarini boshqa xonalardan olovbardoshlik darajasi 1-tur EI 45 bo‘lgan pardadevorlar hamda olovbardoshlik darajasi 3-tur REI 45 bo‘lgan orayopmalar (ombor tagidan va ustidan) bilan, mahsulotlar baland stellajlarda saqlanganda olovbardoshlik darajasi 1-tur REI 150 bo‘lgan devor va olovbardoshlik darajasi 1-tur REI 150 bo‘lgan orayopmalar bilan ajratilishi kerak.

Ishlab chiqarish binolari ichida tayyor mahsulotlarni saqlash uchun mo‘ljallangan V1-V3 toifadagi omborxonalar tashqi devorlar yaqinida joylashtirilishi lozim.

77. Omborxonada va qo‘shimcha xonalardagi deraza maydonlari yong‘in vaqtida tutunni chiqarib yuborish bo‘yicha bajarilgan hisoblarda aniqlanadigan maydondan kam bo‘lmasligi, bunda ushbu hisoblar SHNQ 2.04.05-22 va SHNQ 2.01.05-24da keltirilgan talablarga muvofiq bajarilishi lozim.

Omborxonalarda deraza o‘rnatilmasligi mumkin, bunda SHNQ 2.04.05-22da keltirilgan talablarga muvofiq tutunni chiqarib yuborish shaxtalari bo‘lishi kerak.

78. Ombor binosining avtomatik yong‘in o‘chirish qurilmasi va yong‘in signalizatsiyasi tizimlari SHNQ 2.01.02-04 talablariga muvofiq loyihalanishi kerak.

79. Quyidagi turdagi yuklar saqlanadigan omborxonalar avtomatik yong‘in o‘chirish moslamalari bilan jihozlanishi lozim:

1) 1000 m² va undan ortiq maydonni egallagan yonuvchan yuklar yoki 1500 m² va undan ortiq maydonni egallagan yonuvchan qadoqdagi yonmaydigan yuklar;

2) 700 m² va undan ortiq maydonga ega bo‘lgan yerto‘la va sokol qavatlarida joylashgan yonmaydigan yuklar yoki yonuvchan qadoqdagi yonmaydigan yuklar;

3) jun mahsulotlari.

Shuningdek, yonuvchan yoki yonadigan qadoqdagi yonmaydigan yuklar saqlanadigan balandligi 5.5 m va undan ortiq bo‘lgan stellajlar avtomatik yong‘in o‘chirish moslamalari bilan jihozlanishi zarur.

80. Yong‘in avtomatikasi moslamalarini SHNQ 2.04.09-21ga muvofiq loyihalash kerak.

81. Stellajlar (shtabellar, saqlash joylari) orasidagi o‘tish yo‘llari to‘siqsiz bo‘lishi, bunda stellajlar (shtabellar, saqlash joylari) orasida kengligi kamida 1 m bo‘lgan yo‘laklar, maydoni 300 m^2 dan ortiq bo‘lgan omborxonalarda esa devor bilan stellajlar (shtabellar, saqlash joylari) orasida qo‘shimcha ravishda 0.8 m yo‘laklar qoldirilishi lozim.

2-§. Yog‘och materiallar omborlari uchun umumiy talablar

82. Ochiq turdagi yog‘och materiallar omborlarida ombor to‘sig‘idan yog‘och materiallar shtabellari va uyumlarigacha bo‘lgan masofa 15 m dan kam bo‘lmasligi, bunda shtabel va uyumlarning balandligi 15 m dan yuqori bo‘lsa, ushbu masofa shtabel va uyumning balandligidan kam bo‘lmasligi kerak.

83. Shtabellar uchun ajratilgan joylar qum, grunt yoki shag‘al bilan kamida 0,15 m qalinlikda qoplanishi lozim.

84. Yog‘och materiallar ombori hududi balandligi kamida 2 m bo‘lgan to‘siq bilan o‘ralgan bo‘lishi kerak.

85. Yog‘och materiallar omborlarida yong‘in-qutqaruv depolari va postlari SHNQ 2.09.21-22 talablariga muvofiq joylashtirilishi zarur.

86. Yong‘in uskunalarini saqlash uchun yong‘in o‘chirish gidrantlari bilan kolonkalar o‘rnatilgan joylarda uzunligi kamida 200 m va xizmat radiusi 200 m dan katta bo‘lmagan shlang bilan jihozlangan postlar bo‘lishi kerak.

87. Elektr uzatish liniyalarini yog‘och materiallarning shtabellari va uyumlari ustidan o‘tkazib loyihalash mumkin emas.

88. Yog‘och materiallar omborlarida yashindan himoya tizimi bo‘lishi lozim.

89. Ochiq turdagi yog‘och materiallar omborlaridan binolar va inshootlargacha, shuningdek boshqa omborlargacha bo‘lgan masofalar ombordagi yog‘ochlarning zich kubometri 10000 m³ gacha bo‘lganda SHNQ 2.09.21-22ga muvofiq hisoblanishi, 10000 m³ dan ortiq bo‘lganda mazkur SHNQning 9-ilovasiga muvofiq belgilanishi zarur.

90. Yog‘och omborlariga tutashgan binolar ombordan yong‘inga qarshi to‘siqlar bilan himoyalanmagan bo‘lsa, ushbu binolar avtomatik yong‘in o‘chirish tizimi bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

91. Yog‘och materiallar omborlari hududida shtabel yoki uyum guruhlarining uzunligi bo‘ylab yong‘in-qutqaruv avtomobillari harakatlanishi uchun kengligi kamida 6 m bo‘lgan yo‘llar loyihalanishi, bunda shtabel yoki uyum guruhining kengligi 18 m gacha bo‘lsa, ushbu yo‘llar shtabel yoki uyum guruhining bir tomonidan, 18 m dan ortiq bo‘lsa, uning ikki tomonidan o‘tkazilishi lozim.

92. Yog‘och materiallar ombori hududidagi ko‘priklar yonmaydigan materiallardan qurilishi zarur.

3-§. Ochiq turdagi yog‘och-taxta omborlari

93. Yog‘och-taxta materiallar ochiq holda saqlanganida ular mustahkam shtabellarga ajratilishi hamda har bir shtabelning balandligi 6 m dan, hajmi esa 4000 m³ dan oshmasligi kerak.

94. Yog‘och-taxta materiallarning shateballari guruhlari maydoni 1200 m^2 dan oshmasligi lozim.

95. Shtabel guruhlari kamida 30 m kenglikdagi bo‘ylama va ko‘ndalang yo‘llar yordamida ajratilishi kerak.

96. Shtabel guruhi to‘plamining maydoni 1 ha dan, kengligi 100 m dan oshmasligi lozim.

97. Shtabel guruhlari to‘plamlari orasidagi yong‘inga qarshi masofa quyidagicha bo‘lishi kerak:

shtabellarning balandligi 7 m gacha bo‘lsa, 40 m;

shtabellarning balandligi 7 m dan 10 m gacha bo‘lsa, 50 m;

shtabellarning balandligi 10 m dan 12 m gacha bo‘lsa, 60 m.

98. Yog‘och-taxta omborlarida to‘plamlarning umumiy maydoni 9 ha dan katta bo‘lsa, omborni 9 ha dan katta bo‘lmagan qismlarga ajratuvchi va kengligi 100 m bo‘lgan yong‘inga qarshi zonalar loyihalanishi lozim.

4-§. Ochiq turdagi dumaloq yog‘och omborlari

99. Dumaloq yog‘ochlarning shtabel guruhlari maydoni 0.45 ha dan, har bir shtabel guruhning kengligi 50 m dan, guruh to‘plamining kengligi 100 m dan oshmasligi kerak.

100. To‘plamdagi shtabel guruhlari bir-biridan bo‘ylamasiga kengligi 20 m dan va ko‘ndalangiga 10 m dan kam bo‘lmagan o‘tish yo‘llari bilan ajratilishi lozim.

101. Shtabel guruhlari to‘plamining maydoni 1 ha dan oshmasligi kerak.

102. Shtabel guruhlari to‘plamlari orasidagi masofalar quyidagicha bo‘lishi kerak:

shtabellarning balandligi 8 m gacha bo‘lsa, 30 m;

shtabellarning balandligi 8 m dan 10 m gacha bo‘lsa, 40 m;

shtabellarning balandligi 10 m 12 m gacha bo‘lsa, 50 m.

103. Dumaloq yog‘och omborlarida to‘plamlarning umumiy maydoni 18 ha dan kata bo‘lsa, omborni 18 ha dan katta bo‘lmagan qismlarga ajratuvchi va kengligi 70 m bo‘lgan yong‘inga qarshi zonalar loyihalanishi lozim.

104. Dumaloq yog‘och uyumlarni to‘plash maydonlarida uyumning o‘lchamlari quyidagicha bo‘lishi kerak:

uzunligi kamida 150 m;

eni kamida 90 m;

balandligi kamida 6 m.

5-§. Ochiq turdagi mayda yog‘och, qatronlangan yog‘och va o‘tin omborlari

105. Tarhda to‘g‘ri burchak shaklidagi mayda yog‘och, qatronlangan yog‘och va o‘tinlarning uyumlari orasida masofa quyidagicha bo‘lishi zarur:

bo‘ylamasiga kamida 30 m;

ko‘ndalangiga kamida 20 m.

Tarhda dumaloq shakldagi uyumlar orasidagi masofa kamida 20 m bo‘lishi kerak.

106. Uyum to‘plamlarining maydoni 1 ha dan katta bo‘lmasligi lozim.

107. Uyum to‘plamlari orasidagi masofalar quyidagicha loyihalanishi kerak:

to‘plamdagi uyumning yig‘indi zich kubometri 500000 m^3 gacha bo‘lsa — 50 m;

uyumning zich kubometri 500000 m^3 dan ortiq bo‘lsa — 100 m.

6-§. Ochiq turdagi payrahalar, qipiqlar, po‘stloqlar va yog‘och chiqindilari omborlari

108. Tarhda to‘g‘ri burchak shaklidagi payrahalar, qipiqlar, po‘stloqlar va yog‘och chiqindilari uyumlari orasidagi masofa quyidagicha bo‘lishi zarur:

bo‘ylamasiga kamida 40 m;

ko‘ndalangiga kamida 30 m.

Tarhda dumaloq shakldagi uyumlar orasidagi masofa kamida 30 m bo‘lishi kerak.

109. Payrahalar, qipiqlar, po‘stloqlar va yog‘och chiqindilar uyumlari to‘plamining maydoni 1 ha dan oshmasligi kerak.

110. Uyumlar to‘plamlari orasidagi masofalar quyidagicha loyihalanishi kerak:

to‘plamdagi uyumlarning yig‘indi zich kubometri 500000 m³ gacha bo‘lsa — 50 m;

500000 m³ dan katta bo‘lsa — 70 m.

111. Payrahalar, qipiqlar, po‘stloqlar va yog‘och chiqindilarni saqlash uyumlarining o‘lchamlari quyidagicha bo‘lishi lozim:

balandligi kamida 18 m;

eni kamida 90 m;

uzunligi kamida 150 m.

7-§. Yopiq turdagi yog‘och-taxta omborlari

112. Yopiq turdagi yog‘och-taxta omborlari yog‘och-taxta to‘plamining perimetri bo‘ylab joylashtirilishi, yopiq turdagi omborlardan yog‘och-taxta shtabeligacha bo‘lgan masofalar quyidagicha loyihalanishi kerak:

olovbardoshlik darajasi I va II bo‘lgan binolargacha — 15 m;

olovbardoshlik darajasi III bo‘lgan binolargacha — 20 m;

olovbardoshlik darajasi III va IV bo‘lgan binolargacha — 25 m;

olovbardoshlik darajasi IV va V bo‘lgan binolargacha — 30 m.

113. Yog‘och-taxta shtabel guruhining maydoni 180 m² dan, shtabel balandligi 5.5 m dan katta bo‘lmasligi lozim.

114. Yog‘och-taxta ombori binosining maydoni 500 m² va undan ortiq bo‘lsa, bino avtomatik yong‘in o‘chirgich qurilmalari bilan, 500 m² dan kichik bo‘lsa, avtomatik yong‘in signalizatsiyasi bilan jihozlanishi kerak.

8-§. Yong‘inga qarshi suv ta’minoti

115. Yog‘och materiallar omborlari uchun yong‘inga qarshi suv ta’minoti tizimini loyihalashda mazkur paragrafda keltirilgan talablar hisobga olinish lozim.

116. Zich kubometri 10000 m³ gacha bo‘lgan ochiq va yopiq turdagi yog‘och materiallar omborlarida past bosimli yong‘inga qarshi suv quvuri, zich kubometri 10000 m³ dan katta bo‘lgan omborlarda yuqori bosimli yong‘inga qarshi suv quvuri loyihalanishi zarur.

117. Ochiq turdagi yog‘och materiallar omborlarida yong‘inni o‘chirishga ketadigan suv sarfi ushbu SHNQning 10-ilovasidagi jadvalda keltirilgan qiymatlarga muvofiq belgilanishi kerak.

118. Yong‘in o‘chirish uchun talab etiladigan suv sarfi 150 dan 180 l/s gacha bo‘lganda yong‘inga qarshi suv quvuri bir vaqtning o‘zida uchta lafet dastaklarini ishlashini, talab etilgan suv sarfi 180 l/s va undan katta bo‘lganda to‘rtta lafet dastaklarini ishlashini ta’minlashi lozim.

119. Yong‘in gidrantlardan yog‘och materiallar shtabellari va uyumlarining asoslarigacha bo‘lgan masofa 8 m dan kam bo‘lmasligi hamda gidrantlarga o‘tish yo‘li loyihalanishi kerak.

120. Ombor hududida sig‘imi kamida 500 m³ bo‘lgan yong‘inga qarshi rezervuarlar yoki suv havzalari SHNQ 2.04.02-19da keltirilgan talablarga muvofiq joylashtirilishi zarur.

121. Ombor tabiiy yoki sun’iy suv manbaining qirg‘og‘i bo‘ylab joylashtirilganda, qirg‘oq chizig‘ida har 200 m da qirg‘oq chizig‘iga olib keluvchi yong‘in o‘chirish avtomobillari uchun yo‘llar va o‘lchamlari kamida 12x24 m li maydonchalar loyihalanilishi lozim.

122. Tarkibida yong‘in o‘chirish nasoslari bo‘lgan nasos stansiyasi yog‘och materiallar shtabellari va uyumlari asosidan kamida 40 m masofada joylashtirilishi kerak.

123. Yong‘in o‘chirish lafet dastaklarining turlari GOST 9029-95 bo‘yicha tanlanishi zarur.

124. Yong‘in o‘chirishga talab etiladigan suv sarfi 45 l/s dan ko‘p bo‘lsa, statsionar lafet qurilmalari o‘rnatilishi lozim.

125. Statsionar lafet dastaklarining soni va ularni joylashuvi yog‘och materiallar shtabeli yoki uyumining har bir nuqtasiga kamida ikkita lafet dastagidan suv sepish shartidan kelib chiqib belgilanishi kerak.

126. Lafet dastaklari uchlarining diametri kamida 38 mm bo‘lishi lozim.

127. Statsionar lafet dastaklarini yuqori bosimli suv quvuri tarmog‘iga ulashda ikkita jo‘mrak loyihalanishi, bunda bittasi asosiy suv quvuridan tarmoqlanish joyida va ikkinchisi bevosita lafet dastagi oldida o‘rnatilishi zarur.

Yong‘inga qarshi ko‘chma nasoslarni ulash uchun lafet dastaklarining vertikal quvurlari teskari klapanlar hamda diametri 80 mm bo‘lgan ulanish kallaklari bilan jihozlanishi kerak.

128. Qo‘lda boshqariladigan jo‘mraklar lafet dastaklaridan 20 m dan kata bo‘lmagan masofada o‘rnatilishi, bunda ushbu masofa 20 m dan katta bo‘lsa, bevosita lafet dastagining o‘zidan masofada boshqariladigan jo‘mraklar o‘rnatilishi lozim.

Lafet dastagining vertikal quvuridan suvni chiqarib yuborish uchun diametri kamida 50 mm bo‘lgan nazorat-chiqarish jo‘mragi ko‘zda tutilishi zarur.

129. Lafet dastagiga asosiy suv quvuriga ulanuvchi taqsimlovchi quvur diametri dastak orqali o‘tadigan suv sarfiga bog‘liq ravishda hisoblanishi, shuningdek 100 mm dan kichik bo‘lmasligi kerak.

130. Lafet dastaklarini yog‘och materiallarning shtabellari yoki uyumlari asosidan kamida 15 m masofada maxsus lafet minoralarda yoki tagliklarda o‘rnatish lozim.

Lafet minoralarning balandligi yog‘och materiallarning shtabellari yoki uyumlarining balandligi, qiyalik burchaklari va lafet dastaklaridan shtabel yoki uyum asoslarigacha bo‘lgan masofalarga bog‘liq holda grafik usulda aniqlanishi lozim.

131. Lafet minoralari yonmaydigan materiallardan qurilishi, bunda lafet dastaklarini o‘rnatish uchun maydonchalarning tarhdagi o‘lchami kamida 2.5 x 2.5 m yoki radiusi kamida 1.5 m bo‘lishi hamda balandligi 1.2 m bo‘lgan to‘siq bilan to‘silgan bo‘lishi kerak.

132. Lafet minoralariga metall narvonlar o‘rnatilishi, ushbu narvonlarning ikkala tomonida yonmaydigan materiallardan qurilgan yong‘inga qarshi ekranlar bo‘lishi lozim.

133. Lafet dastaklarini binoning olovbardoshlilik darajasi II bo‘lgan qoplamalariga o‘rnatish mumkin, bunda lafet dastaklariga o‘tish uchun zina katagidan tomga chiqish joyi yoki tashqi metall narvon loyihalanishi lozim.

SHNQ 2.09.03-23 “Omborxonalar. Loyihalash me’yorlari” shaharsozlik normalari va qoidalariga
1-ILOVA

Paletlarni qo‘p qavatli tarzda joylashtirishda vertikal va gorizontal o‘lchamlar



SHNQ 2.09.03-23 “Omborxonalar. Loyihalash me’yorlari” shaharsozlik normalari va qoidalariga
2-ILOVA

Yordamchi xonalar uchun tavsiya etiladigan maydonlar

Xona nomi	Xona uzunligi (m)	Xona kengligi (m)	Xona maydoni (m^2)
Yopiq turdagi (alohida xonalar) ofis xonalari			
Ombor boshqaruvchisining xonasi	6.1	4.9	29.7
Kadrlar bo‘limi xonasi	4.3	3.7	15.6
Ochiq turdagi (umumiy xonada joylashgan) ofis joylari			
Menejerlar joyi	3.7	3.7	13.4
Menedjer yordamchilari joyi	3.0	2.4	7.4
Buxgalteriya xodimlari joyi	1.5	2.1	3.3
Inventarizatsiya qilish joyi	1.5	2.1	3.3
Xaridlar bo‘limi xodimlari joyi	1.8	2.4	4.5
Ombordagi ish jarayonlarini boshqaruvchi xodimlar joyi	1.8	1.8	3.3
Uchrashuvlar joyi	3.0	3.0	9.3
Intervyu qilish joyi	2.4	2.4	5.9
Programmistlar joyi	2.4	2.4	5.9
Ochiq turdagi yordamchi xizmatlar xonalari			
Fayllarni saqlash joyi	0.3	1.5	0.5
Resepshn uchun joy	9.1	6.1	55.7
Asosiy yo‘laklar uchun ajratilgan joylar	-	-	-
Ikkilamchi yo‘laklar uchun ajratilgan joylar	-	-	-
Yopiq turdagi yordamchi xizmatlar xonalari			
Pochta xonasi	7.6	3.7	27.9
Hojatxonalar*	7.3	2.4	17.8
Farrosh jihozlarini saqlash xonasi*	1.8	1.2	2.2
Kiyim javonlari xonasi*	3.0	0.6	1.8
Ta’minot xonasi*	5.5	3.7	20.1
Konferensiya zali	7.6	6.1	46.5
Ovqatlanish xonasi*	18.3	6.1	111.5
Tibbiy yordam xonasi	4.9	3.7	17.8

* Izoh:omborxonada loyihalanishi shart bo‘lgan alohida xonalar, ularning maydonlari tavsiyaviy xususiyatga ega.

SHNQ 2.09.03-23 “Omborxonalar. Loyihalash me’yorlari” shaharsozlik normalari va qoidalariga
3-ILOVA



1-rasm. Yuklarni qabul qilish ofisining tarhdagi ko‘rinishiga misol.



2-rasm. Yuklarni chiqarish ofisining tarhdagi ko‘rinishiga misol.

SHNQ 2.09.03-23 “Omborxonalar. Loyihalash me’yorlari” shaharsozlik normalari va qoidalariga
4-ILOVA



1-rasm. Yuk mashinasi uchun dok maydonchasining funksional o‘lchamlari. Tarhdagi ko‘rinishi.



2-rasm. Yuk mashinasi urilishidan binoni himoyalash qurilmalari. Tarhdagi ko‘rinishi.

SHNQ 2.09.03-23 “Omborxonalar. Loyihalash me’yorlari” shaharsozlik normalari va qoidalariga
5-ILOVA

Turli yuk mashinalari uchun dok balandliklari

Yuk mashinasi turi	Dok ostonasi balandligi (mm)		Yuk mashinasining umumiy balandlik (mm)		Dokning balandligi (mm)	Tutashtiruvchi qurilmaning uzunligi (m)
	min	maks	min	maks		
Konteynerli yuk mashinasi	1420	1570	3710	4110	1320	1.8 — 3.0
Refrijeratorli yuk mashinasi	1270	1520	3810	4110	1320	1.8 — 2.4
Bort platformali yuk mashinasi (1)	1220	1520	-	-	1320	1.8 — 3.7
Ikki o‘qli yarimpritsep (2)	1170	1420	3660	4110	1220	1.8 — 2.4
To‘g‘ri yarimpritsep (2)	1120	1320	3660	4110	1220	2.4
Shahar ichida yuk yetkazib beruvchi yuk mashinasi	1070	1220	3350	3810	1220	1.8 — 2.4
Bortli yuk mashinasi	1070	1220	-	-	1220	1.8 — 2.4
Baland furgon	810	960	3960	4110	1220	2.4 — 3.7
Mebel tashuvchi furgon (3)	610	910	3960	4110	1090	2.4
Multistop furgon (3)	510	760	2590	3050	760	1.8 — 3.0
Panelli yuk mashinasi (3)	510	610	2440	2740	760	2.4 — 3.0
Past treylerli yuk mashinasi (3)	510	610	-	-	760	2.4 — 3.0
Yopiq vagon (4)	1040	1120	-	-	760	1.8
Refrijeratorli vagon (4)	1170	1320	-	-	1120	1.5 — 1.8

Izoh:

(1) dok balandligi 1220 — 1320 mm oralig‘ida;

(2) dok balandligi (1270 mm), agar faqat yarimpritseplarga xizmat ko‘rsatsa;

(3) 760 mm dok nominal balandligini ta’minlash uchun tashqi rampali 1220 — 1270 mm dok balandligi tavsiya etiladi;

(4) dokga tutashtiruvchi qurilmaning minimal uzunligi temir yo‘l vagoni va dok orasidagi talab etiladigan minimal tirqish bo‘yicha belgilanadi.

SHNQ 2.09.03-23 “Omborxonalar. Loyihalash me’yorlari” shaharsozlik normalari va qoidalariga
6-ILOVA



1-rasm. Yuk mashinasi dokining tarhdagi o‘lchamlari.



2-rasm. Yuk mashinasi dokining ko‘ndalang kesimiga misol.



3-rasm. Yuk mashinalari uchun dok maydonchasining ko‘ndalang kesim ko‘rinishi.



4-rasm. Dok darvozasining o‘lchamlari.

SHNQ 2.09.03-23 “Omborxonalar. Loyihalash me’yorlari” shaharsozlik normalari va qoidalariga
7-ILOVA



1-rasm. Tutashtiruvchi qurilma sxemasi.



2-rasm. Yuk mashinasi doki uchun soyabon.

SHNQ 2.09.03-23 “Omborxonalar. Loyihalash me’yorlari” shaharsozlik normalari va qoidalariga
8-ILOVA

Binoning yong‘in toifasiga muvofiq uning qavatlar soni, balandligi va maydonini aniqlash jadvali

Ombor toifasi	Binoning balandligi*, (m)	Omborning olovbardoshlilik darajasi	Binoning konstruktiv yong‘in xavfi bo‘yicha sinfi	Yong‘in bo‘linmasi chegaralaridagi qavat maydoni (m^2)		
				Bir qavatli	Ikki qavatli	Ko‘p qavatli (uch va undan ortiq qavat)
1	2	3	4	5	6	7
A portlash va yong‘in xavfi	-	I, II	SO	5200	-	-
	-	III	SO	4400	-	-
	-	IV	SO	3600	-	-
	-	IV	S2, S3	75**	-	-
B portlash va yong‘in xavfi	18	I, II	SO	7800	5200	3500
	-	III	SO	6500	-	-
	-	IV	SO	5200	-	-
	-	IV	S2, S3	75**	-	-
V1-V4 yong‘in xavfi	36	I, II	SO	10400	7800	5200
	24	III	SO	10400	2800	2600
	-	IV	SO, S1	7800	-	-
	-	IV	S2, S3	2600	-	-
	-	V	normalashtirilmaydi	2200	-	-
D	cheklanmagan			cheklanmagan		
	36	I, II	SO	cheklanmagan	10400	7800
	12	III	SO, S1	cheklanmagan	7800	5200
	-	IV	SO, S1	5200	2200	-
	9			2200		

* Binoning balandligi 1-qavat pol sathidan yuqori qavat shifti sathigacha (texnik qavat ham qo‘shiladi) hisoblanadi, shift balandligi o‘zgaruvchan bo‘lsa, qavatning o‘rtacha balandligi olinadi.

Olovbardoshlilik chegarasi I, II va III bo‘lgan SO sinfli bir qavatli binolarning balandligi uchun SO normalashtirilmaydi.

Olovbardoshlilik chegarasi IV bo‘lgan SO va S1 sinfli bir qavatli binolarning balandligi 25 m dan, S2 va S2 sinfli binolarning balandligi 18 m dan kam bo‘lmagan qiymatda (pol sathidan ustundagi yuk ko‘taruvchi konstruksiyalar tomyopmasigacha) qabul qilinadi.

**Mobil binolar.

Izoh: V va V1-V4 toifadagi xonalarning tag bo‘linmasi uchun ko‘rsatkichlar SHNQ 2.01.19-22da keltirilgan talablar bo‘yicha qabul qilinadi.

Mazkur jadvaldagi ko‘rsatkichlar material va moddalar issiq, cho‘g‘langan yoki eritilgan issiq holatda saqlanadigan G toifadagi xonalarga tatbiq etilmaydi.

SHNQ 2.09.03-23 “Omborxonalar. Loyihalash me’yorlari” shaharsozlik normalari va qoidalariga
9-ILOVA

Ochiq turdagi yog‘och materiallar omborlaridan turli maqsadlardagi obyektlar hamda boshqa omborlargacha bo‘lgan eng kichik masofalar

Obyektlarning nomi	Yog‘och materiallar omborlaridan obyektlargacha hamda omborlar orasida ularning sig‘imiga (zich m^3) bog‘liq holda eng kichik masofalar											
	dumaloq yog‘och			yog‘och-taxta			mayda yog‘och, katronlangan yog‘och va o‘tin			payraha, qipiq, po‘stloq va yog‘och chiqindilar		
	10000 gacha	10000 dan ortiq 500000 gacha	500000 dan ortiq	10000 gacha	10000 dan ortiq 500000 gacha	500000 dan ortiq	10000 gacha	10000 dan ortiq 500000 gacha	500000 dan ortiq	10000 gacha	10000 dan ortiq 500000 gacha	500000 dan ortiq
1. Qarag‘ay va aralash turdagi yog‘ochlar	40	50	75	60 50	120 100	180 150	60	120	180	50	75	100
2. Aholi yashaydigan manzillardagi turar-joy va jamoat binolari	40	60	80	50 40	100 80	150 120	50	100	150	50	75	100
3. A va B toifadagi binolar:												
qo‘shni korxonaniki	40	50	75	60 50	100 75	120 100	60	100	120	40	50	60
o‘z korxonasiniki	30	40	50	50 40	75 60	100 80	50	75	100	30	40	50
4. Qo‘shni yoki o‘z korxonasidagi ishlab chiqarish jarayoniga bog‘liq bo‘lmagan V1 va												

V3 toifadagi binolar, turli olovbardoshlilik darajasiga ega bo‘lgan omborlar:												
I, II, III va SO	20	25	30	30 25	40 30	50 35	30	40	50	20	25	30
IV va SO, S1	25	30	35	40 30	50 40	60 50	40	50	6	25	30	35
IV va S2, SZ	30	35	40	50 40	60 50	70 60	50	60	70	30	35	40
V, normalashtirilmagan	35	40	45	60 50	70 60	80 70	60	70	80	35	40	45
5. Qo‘shni yoki o‘z korxonasidagi ishlab chiqarish jarayoniga bog‘liq bo‘lmagan V4, G va D toifadagi binolar, turli olovbardoshlilik darajasiga ega bo‘lgan omborlar:												
I, II, III va SO	20	25	30	30 25	40 30	50 35	30	40	50	20	25	30
IV va SO, S1	25	30	35	40 30	50 40	60 50	40	50	60	25	30	35
IV va S2, SZ	30	40	50	50 40	60 50	70 60	50	60	70	30	35	40
V, normalashtirilmagan	40	50	60	60 50	70 60	80 70	60	70	80	35	40	45
6. Qo‘shni yoki o‘z korxonasidagi ishlab chiqarish												

jarayoniga bog‘liq bo‘lmagan V, G va D toifadagi binolar, turli olovbardoshlilik darajasiga ega bo‘lgan omborlar												
I, II, III va SO	15	20	25	25 20	30 25	35 30	25	30	35	20	25	30
IV va SO, S1	20	25	30	30 25	35 30	40 35	30 40	35	40	25	30	35
IV va S2, SZ	25	30	35	35 30	40 35	45 40	35	40	45	30	35	40
V, normalashtirilmagan	30	35	40	40 35	45 40	50 45	40	45	50	35	40	45
7. Temir yo‘l platformalari sathida joylashgan yog‘ochni yuklash va tushirish maydonchalari va yog‘och tayyorlash korxonalarining yog‘och kesish estakadalari	10	15	20									
8. Transport estakadalari va inshootlari, omborda ishlab chiqarish jarayoniga bog‘liq bo‘lmagan muhandislik tarmoqlarining (ombor yonida												

joylashgan) yong‘inga chidamlilik darajasi va konstruktiv yong‘in xavfi sinflari:												
I, II, III va SO	15	20	25	20 15	25 20	30 25	20	25	30	15	20	25
IV va SO, S1	20	25	30	25 20	30 25	35 30	25	30	35	20	25	30
IV va S2, SZ	25	30	35	40	35 30	40 35	45 40	35	40	25	30	35
V, normalashtirilmagan	30	35	40	35 30	40 35	45 40	35	40	45	30	35	40
9. 1000 V dan yuqori bo‘lgan kuchlanishli elektr uzatish liniyalari	Elektr uzatish liniyasining kamida bir yarim balandligi											
10. Temir yo‘llar:												
umumiy tarmoqlar (ajratuvchi yo‘llargacha) bekatlardagi tarmoqlar	30	40	50	70 50	80 60	100 70	70	80	100	30	40	50
kichik bekatlar va platformalarda	20	25	30	50 40	70 50	80 60	50	70	80	20	25	30
oraliq yo‘llardagi xususiy liniyalar (yo‘l o‘qigacha)	kamida 10 m											
11. Kema to‘xtash va bog‘lash joyi (kema to‘xtash joyining chizig‘igacha):												

umumiy foydalanishdagi	30	40	50	50 40	75 60	100 80	50	75	100	30	40	50
qo‘shni korxonaga tegishli bo‘lgan xususiy	kamida 20 ms											
12. Barcha toifadagi yo‘llar va qo‘shni korxonalarning umumiy tarmog‘idagi magistral yo‘llarining qatnov qismi cheti	20	25	30	30 20	40 30	50 40	30	40	50	20	25	30
13. Yonuvchan suyuqliklar omborlari (m^3):												
1000 dan 2000 gacha	50	75	100	50 40	100 80	150 120	50	100	150	40	60	80
600 dan 1000 gacha	40	60	80	60 40	80 50	120 70	60	80	120	35	40	50
300 dan 600 gacha	30	40	50	50 30	60 40	80 60	50	60	80	30	35	45
300 gacha	20	30	40	40 20	50 30	60 40	40	50	60	25	30	35
14. Ochiq turdagi qirqilgan va bo‘laklangan torf omborlari (t):												
10 000 gacha	40	50	60	50 40	60 50	70 60	50	60	70	30	40	50
10 000 dan ko‘p	45	55	65	60 50	70 60	80 70	60	70	80	40	50	60

15. Ochiq turdagi tosh ko‘mir omborlari (t):												
100 000 gacha	30	40	50	50 45	60 50	70 60	50	60	70	35	45	55
100 000 dan ortiq	40	50	60	50 45	60 50	70 60	50	60	70	35	45	55
16. Ochiq turdagi dumaloq yog‘och omborlarining (zich m^3)												
10000 gacha	-	-	-	30 20	40 30	50 40	30	40	50	30	35	40
10 000 dan 500000 gacha	-	-	-	40 30	50 40	60 50	40	50	60	35	40	45
500 000 dan ko‘p	-	-	-	50 40	60 50	70 60	50	60	70	40	45	50
17. Mayda yog‘och katronlangan yog‘och va o‘tin omborlari (zich m^3)												
10000 gacha	30 20	40 30	50 40	-	-	-	40 30	50 40	60 50	20 15	30 20	40 25
10 000 dan 100000 gacha	40 30	50 40	60 50	-	-	-	50 40	60 50	70 60	30 20	45 25	50 30
100 000 dan ko‘p	50 40	60 50	70 60	-	-	-	60 50	70 60	80 70	40 25	50 30	60 40
18. Ochiq turdagi payraha va qipiq omborlari (zich m^3):												
10000 gacha	30	40	50	40 30	50 40	60 50	40	50	60	20	30	40

10 000 dan 500000 gacha	40 30	50 40	60 50	50 40	60 50	70 60	50	60	70	30	45	50
500 000 dan ko‘p	50 40	60 50	70 60	60 50	70 60	80 70	60	70	80	40	50	60
19. Ochiq turdagi payraha va qipiq omborlari (zich m^3):												
10000 gacha	30	40	50	40 30	50 40	60 50	40	50	60	-	-	-
10 000 dan 500000 gacha	40	50	60	50 40	60 50	70 60	50	60	70	-	-	-
500 000 dan ko‘p	50	60	70	60 50	70 60	80 70	60	70	80	-	-	-
20. Po‘stloq va yog‘och chiqindilari	40	50	60	50 40	60 50	70 60	50	60	70	30	40	50
21 To‘siqlar	15	15	15	20 20	20 20	20 20	15	15	15	15	15	15
22 . Magistral quvurlar, bosimi 12 MPa (12 kgf/cm^2) dan yuqori bo‘lmagan gaz quvurlari, neft va neft mahsulotlarining quvurlari.	SHNQ 2.05.06-22 bo‘yicha											

Izoh:

1. Ochiq va yopiq turdagi yog‘och omborlaridan yonuvchan suyuqlik omborlariga masofalar hisoblar yordamida aniqlanadi.
2. Ko‘mir omborlaridan ochiq va yopiq turdagi yog‘och omborlarigacha bo‘lgan masofalar 25 foizga ko‘paytirilishi kerak.
3. Iqlim zonalarini hisobga olgan holda masofalarni 10 — 15 foizga oshirish mumkin.

SHNQ 2.09.03-23 “Omborxonalar. Loyihalash me’yorlari” shaharsozlik normalari va qoidalariga
10-ILOVA

Ochiq turdagi yog‘och materiallar omborlarida bitta yong‘inni o‘chirishga ketadigan suv sarflari

Yog‘och materiallarni saqlash turi va usuli	**Ochiq turdagi yog‘och materiallar omborining zich kubometrida, m^3, yong‘in o‘chirishga suv sarfi (l/s)**			
	5000 gacha	**5000 dan ortiq 50000 gacha**	**50000 dan ortiq 250000 gacha**	**250000 dan ortiq**
Yog‘och-taxta shtabeli: bog‘langan oddiy	SHNQ 2.04.02-19 bo‘yicha; lekin ombor zich kubometri 5000 m^3 bo‘lsa, kamida 45 l/s	90 120	120 150	150 180
Dumaloq yog‘och materiallar shtabeli	“-”	90	120	150
Mayda yog‘och, qatronlangan yog‘och va o‘tin uyumi	“-”	150	180	240
Payraha va qipiq uyumi	“-”	90	120	150
Po‘stlar va yog‘och chiqindilari uyumi	“-”	60	90	120